

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

**VOLUME I, ISSUE 11**



# **JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES**

**ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ**



**IMFAKTOR**

**NOVEMBER | 2023**

ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 11-СОН

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-11

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-11

ТОШКЕНТ - 2023

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 11 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-11>

## Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

## Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек Ғ.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

## Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергандовна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайбергандов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 2022 йил 22 декабрь кунини **№ 054834**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 8.2** “**импакт-фактор**” кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади**.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: [www.imfaktor.uz/com](http://www.imfaktor.uz/com)

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

**XUDOYQULOVA Shoira Xolmurod qizi**  
*Qarshi davlat universiteti*  
*magistratura mutaxassisligi*  
*1-kurs magistri*

**YAZIYEV Erkin Sa'dullayevich-**  
*Qarshi davlat universiteti*  
*psixologiya kafedrasida*  
*dotsenti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10171678>

## **O‘ZBEKISTON PSIXOLOGIYASIDA OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOLARINING O‘RGANILISHI** *PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSC) B.JO‘RAYEV TAQRIZI OSTIDA*

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada mamlakatimiz psixologiyasi fanida oilaviy munosabatlar muammolarining o‘rganilishi tahlil qilingan. Unda yurtimiz psixologlarining oila va nikoh masalalari, jumladan oilada er-xotin munosabatlari, unda tenglik, hamjihatlik va o‘zaro hurmat hissini yuzaga keltirish, yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash, nikoh oldi omillari va boshqalar to‘g‘risida ilmiy qarashlari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** jamiyat, oila, nikoh, er-xotin, shaxslararo munosabat, nikohga yetuklik, oilaviy qadriyat, oila qurish motivlari, oilaviy nizolar.

## **ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ПСИХОЛОГИИ УЗБЕКИСТАНА**

### **АННОТАЦИЯ**

В статье анализируется исследование проблем семейных отношений в области психологии нашей страны. В ней изложены научные взгляды психологов нашей страны на вопросы семьи и брака, в том числе брачных отношений в семье, создания чувства равенства, гармонии и взаимного уважения, подготовки молодых людей к семейным отношениям, добрых факторов и др.

**Ключевые слова:** общество, семья, брак, пара, межличностные отношения, зрелость для брака, семейные ценности, мотивы построения семьи, семейные конфликты.

## STUDY OF PROBLEMS OF FAMILY RELATIONS IN THE PSYCHOLOGY OF UZBEKISTAN

### ANNOTATION

The article analyzes the study of problems of family relationships in the field of psychology in our country. It outlines the scientific views of psychologists in our country on issues of family and marriage, including marital relations in the family, creating a sense of equality, harmony and mutual respect, preparing young people for family relationships, premarital factors, etc.

**Key words:** society, family, marriage, couple, interpersonal relationships, maturity for marriage, family values, motives for building a family, family conflicts.

Oila jamiyat tayanchi, insonning baxt qo'rg'oni hisoblanadi. Shu bois bugungi kunda mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada oila-nikoh munosabatlarini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, hozirgi kun oilasining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini yanada rivojlantirish, demografik jarayonlarni boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, oila-nikoh munosabatlarini chuqur o'rganish, ularning hali yaxshi o'rganilmagan ijtimoiy va etnopsixologik jihatlarini ilmiy tadqiq etish soha bilan shug'ullanuvchi barcha fanlar, jumladan mamlakatimiz psixologiya fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Mamlakatimizda psixologiya fani sohasida o'zbek oilalariga xos muammolarni o'rganish yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va hozirgi kunda ham bu kabi ilmiy izlanishlar muvaffaqiyatli davom ettirilmoqda. Bu sohada psixolog olimlardan G'.B.Shoumarov, E.G'oziyev, V.M.Karimova, M.G.Davletshin, N.A.Sog'inov, B.M.Umarov, E.N.Sattorov, X.Karimov, F.A.Akramova, S.A.Oxunjonova, A.Shojalilov, T.M.Adizova, E.Usmonov, Sh.SH.Jo'rayeva, R.S.Samarov, O.Shamiyeva, F.R.Ro'ziqulov, N.Salayeva, M.A.Utepbergenov, M.X.Fayziyeva, R.X.Dushanov, I.A.Jabborov, N.N.Shomurotova, R.N.Alimardonova va boshqalar olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir.

Ana shu ilmiy ishlarda oilaviy munosabatlar psixologiyasi, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o'zbek oilalaridagi milliy o'ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi bir qator masalalar har tomonlama o'rganilib, tahlil qilingan.

F.A.Akramova o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida yoshlarni oilaga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratgan. Muallif yoshlarni oilaga tayyorlashda nikohga yetuklik omillari muhim o'rin tutishini ta'kidlab, ular qatoriga yoshlarning oilaviy hayotga ma'naviy yetukligi, ularning oila qurish motivlari, nikoh qurish yoshiga oid fikrlari va bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlarini kiritadi. Olimaning fikricha, nikohga yetuklik tushunchasi o'ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam rivojlanib, takomillashib boruvchi, o'z ma'naviy, axloqiy rivojida muntazam ravishda yangiliklarni o'ziga singdiruvchi mavjudotdir. Kishining yetukligi, ayniqsa, oilaviy hayotga yetukligi masalasida fikr yuritilganda, bu tushunchadan bir shartli o'lchov sifatidagina foydalaniladi [1].

Muallif tomonidan nikohga yetuklik deyilganda, oila quruvchi yoshlarning jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkinligi ta'kidlanadi. Bularning orasida jinsiy, huquqiy yetuklik ko'rsatkichlari aniq alomatlariga ega bo'lsa, iqtisodiy, psixologik, ma'naviy-axloqiy jihatlar qat'iy bir ko'rsatkich bilan belgilanmaydi. Shaxsning jinsiy yetukligi unda balog'atga o'tish alomatlarining kuzatilishi, ikkilamchi jinsiy belgilarning keskin darajada namoyon bo'lishi bilan, ichki sekretsiya bezlarining faollashuvi bilan xarakterlanadi.

Shaxsning psixologik yetukligi esa, uning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni hushyor baholay olishida namoyon bo‘ladi. Yoshlarda kuzatiladigan psixologik yetuklik shaxsning boshqalarga nisbatan bo‘lgan ijobiy munosabatlari: hamdardlik, hamfikrlilik, o‘zaro yordam kabilar tarzida namoyon bo‘la oladigan ma’naviy sifatlarini ham bildiradi. Yoshlar oila qurayotganlarida bu xususiyatlar hal qiluvchi bo‘lib hisoblanadi.

M.X. Fayziyeva esa o‘zining ilmiy izlanishlarida oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta’sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rgangan hamda mavzu bo‘yicha muhim xulosalarni qo‘lga kiritgan. Uning fikricha, oiladagi shaxslararo munosabatlar milliy-hududiy xususiyatlarga uzviy bog‘lik murakkab tizimga ega bo‘lib, uning asosiy bug‘inini er bilan xotin o‘rtasidagi munosabat tashkil etadi hamda undagi shaxslararo munosabatlar barqarorligini oilaviy qadriyatlarining shakllanganlik darajasi belgilaydi. O‘zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini belgilashda er-xotin munosabatlaridagi o‘zaro hurmat va ishonch, bir-birini yaxshi tushunish, farzandlar, muomala odobi, onglilik va ma’naviy axloqiy mavqe, uning moddiy ta’minlanganligi, uy-joy bilan ta’minlanganlik, rollar taqsimotining mosligi, jinsiy moslik muhim omillar hisoblanadi.

Muallifning ta’kidlashicha, oilaviy nizolarning shakllanishi va ularning buzilib ketishida er-xotin fe‘l-atvorining mos kelmasligi, farzandsizlik, sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi, oilaning budjetini oqilona boshqara olmaslik asosiy omillar bo‘lib, ro‘zg‘or ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi, iqtisodiy ta’minotdagi kamchiliklar, rashk va ishonchsizlik, ota-onalarning er-xotin munosabatlariga aralashuvi, dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi, jinsiy nomoslik kabi omillar ham oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarni kelib chiqarishda muhim o‘rin tutadi [3].

Psixolog olim I.O.Haydarov yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik muammolarini o‘rganib, nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng xuquqlilik asosida tashkil etilishi, u bir-biriga begona insonlarning qarindoshlik rishtalari bilan bog‘lashini ta’kidlab o‘tgan. Shu o‘rinda kelajakda turmush qurishini niyat qilgan yigit va qizlar o‘zlarini doimo turmushga ota yoki ona bo‘lishga tayyorlab borishlari lozimligi, buning uchun birinchi navbatda, o‘z sog‘liklari, tanlangan juftlarining harakterini, dunyoqarashi o‘ziga qay darajada mos kelishi to‘g‘risida qayg‘urishi kerakligini e’tirof etadi.

Muallifning fikriga ko‘ra, ota-onaning xohishiga ko‘ra hali voyaga yetmagan qizlarni turmushga uzatish, o‘g‘il bolalarni uylantirib qo‘yish, ma’lum bir kasb-hunarni egallamasdan, mehnat qilish, oiladagi iqtisodiy-moddiy ta’minotni boshqara olish tajribasiga ega bo‘lmasdan, erta uylantirish yoki turmushga uzatish ko‘pgina salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi [4].

I.O.Haydarov buni yoshlarning farzandni dunyoga keltirish va tarbiyalashda ota-onalik majburiyatlarini his qilmaslik, oilada er-xotin vazifalarini taqsimlanishidagi ma’naviy tayyorgarlikning yetishmasligi, yosh oilaning mustaqil mablag‘i bo‘lmasligi sababli ota-ona qo‘liga qaram bo‘lishi va boshqa sabablar bilan tushuntiradi.

R.N.Alimardonova esa o‘zining ilmiy izlanishlarida yosh kelin-kuyovlar o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashning ijtimoiy-etnik asoslarini o‘rganishga harakat qilgan. Uning fikricha, oilada shaxslararo munosabatlar murakkab tizimga ega bo‘lib, uning asosiy bo‘g‘inini er bilan xotin o‘rtasidagi munosabatlar tizimi tashkil etadi. Bu munosabatlar kelin-kuyovning hayoti va faoliyatida namoyon bo‘lib, uning barqarorligini oilaviy qadriyatlarining shakllanganlik darajasi belgilaydi. Bugungi kunda oilaviy qadriyatlar o‘zida bir qator ijtimoiy-etnik jihatlarni: jinsiy munosiblik, shaxs sifatida identifikatsiyalashganlik, maishiy-xo‘jalik, ota-ona tarbiyachilik, ijtimoiy faollik, emotsional psixoterapevtik, tashqi jozibadorlikni meyorli rivojlanganligini taqozo etadi [2].

Muallif tomonidan oilaviy nizolar kelib chiqishi va oilaning buzilib ketishida asosiy omillar sifatida:

- er-xotin fe‘l-atvorining mos kelmasligi;
- farzandsizlik, sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi;
- oila budjetini oqilona boshqara olmaslik asosiy omillar deb tan olinadi.

Uy ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi, iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar, rashk va ishonchsizlik, ota-onalarning kelinkuyov munosabatlariga noo'rin aralashuvi, dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi, jinsiy munosabatlarda zarur qoidalarga amal qilmaslik (yoki xiyonat) holatlari sababchi bo'lishi ko'rsatib o'tiladi.

Psixolog N.N.Shomurodovanning ilmiy tadqiqotlari esa oilaviy zo'ravonlikning ijtimoiy-psixologik xatarlarini o'rganishga bag'ishlangan. Uning fikricha, oiladagi zo'ravonlikdan dunyo bo'yicha har uchinchi ayol jabr ko'radi, ammo bu holatni boshdan kechirayotgan odamlar ko'pincha hech kimga bu haqida aytmaydilar[5]. Bu ularga hech kimga aytmaslik bilan tahdid qilinganligi, bundan tashqari, oilaviy zo'ravonlikni boshdan kechirayotgan odamlar ba'zida o'zlarini ayblashishi yoki bu haqda gapirishga uyalishi bilan bog'liq bo'ladi.

Muallif zo'ravonliklar jismoniy va jinsiy, moliyaviy, emotsional va psixologik zo'ravonlik ko'rinishida bo'lishini, tahqirlash, urish, zo'rlash, og'zaki tahdidlar, ta'qib qilish, pulsiz qoldirish va qasddan do'stlaridan va oilasidan ajratib qo'yish oilaviy zo'ravonlikda sodir bo'ladigan xatti-harakatlar ko'rinishida sodir bo'lishini ta'kidlaydi. Ayniqsa, erkakning oilaviy zo'ravonligi uni boshdan kechirgan ayollar va bolalarga juda katta ta'sir ko'rsatishi, zo'ravonlik ayollar va bolalar faoliyatini jiddiy ravishda cheklab qo'yishi va ularning hayotning barcha jabhalarida faol ishtirok etishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini e'tirof etadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, oila jamiyatning muhim bo'lagi bo'lib, qadim-qadimdan unga muqaddas maskan, inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlaydigan ijtimoiy institut sifatida qaralgan. Shu bois, hozirgi kunda ham oila muammolari u bilan shug'ullanuvchi bir qator fanlar, jumladan mamalakatimiz psixologiya fanining muhim vazifalari sirasiga kiradi.

Mamlakatimiz psixologlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda oila va nikoh masalalariga, jumladan oilaviy turmush tartib-qoidalari, er-xotin munosabatlari, ularning vazifa va burchlari, sifat va fazilatlarini, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o'zbek oilalaridagi milliy o'ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi bir qator masalalar ham har tomonlama o'rganilib, tahlil qilinganligi diqqatga sazovordir. Psixolog olimlarning oila va nikoh muammolari o'rganilgan ilmiy tadqiqotlari natijalaridan yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlashda va oilaviy turmush amaliyotida samarali foydalanish mumkin.

## ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Akramova F.A. Oilada sog‘lom psixologik muhitni tarkib toptirish jamiyat barqarorligining asosi sifatida. Zamonaviy ta‘lim /Современное образование, 2017, №12, 4-15 betlar.
2. Alimardonova R. O‘zbek oilalarida yosh kelin-kuyov psixologik qiyofasini ifodalovchi xulq-atvorning empirik ko‘rsatkichlari. O‘zMU xabarlari / Вестник НУУз., 2017, № 2021, [1/1], 11-14 betlar.
3. Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. “Yangi asr avlodi” nashr., 2007 y.
4. Haydarov I.O. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy- psixologik muammolari. “Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: milliy va xorijiy tajriba” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, “Mahalla va oila” nash., Toshkent: 2021, 226-229 b.
5. Shomurotova N., Oiladagi sog‘lom psixologik muhitning shaxs shakllanishidagi ahamiyati. “O‘zbekistonda zamonaviy oila rivojlanishining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand: 2019. 132– 135 b.

ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 11-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ  
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-11

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-11

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)